MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NORBEKOVA MADINA SHUXRAT QIZI

O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSI UCHUN ILMIY-TEXNIK MATNLAR BAZASINI YARATISH

10.00.11– Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: ***811.512.133’28***

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD) по филологическим наукам

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NORBEKOVA MADINA SHUXRAT QIZI

O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSI UCHUN ILMIY-TEXNIK MATNLAR BAZASINI YARATISH

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5438 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ozbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universitetini veb-sahifasining www.nuu.uz. hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raupova Laylo Rahimovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Toirova Guli Ibragimovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Abduraxmanova Nilufar Zaynobiddin qizi filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24, e-mail: devonxona@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24, e-mail: devonxona@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Rahmonov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.B.Xujamkulova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

A.E.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f,d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tabiiy tilni qayta ishlash sohalari jadal rivojlanib, kompyuter lingvistikasi yutuqlari, jumladan, tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografik tahlil hamda tarjima faoliyati kabi muhim yo‘nalishlarni turli aspektlarda o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish, tilning tuzilish va ma’no jihatlarini aniqlash, ta’lim jarayonini takomillashtirish, milliy korpuslar va elektron lug‘atlar yaratish, shuningdek, tarjima jarayonlarini samarali tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida XXI asrda korpus lingvistikasini ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish jarayonlari kengayib, turli yo‘nalishlarda muhim natijalarga erishish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, avtomatik tarjimani takomillashtirish, tillarni lingvistik modellash, so‘zlarni lemmalash tizimlarini yaratish, korpusli tahlil asosida sintaktik va semantik tuzilmalarni aniqlash, shuningdek, turli tillar uchun xos bo‘lgan milliy-madaniy meros xususiyatlarini raqamlashtirish va yoritishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida o‘zbek tiliga zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlov berish, uning milliy korpusini yaratish va lingvistik xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish zarur. Shu ma’noda, o‘zbek tili milliy korpusining yaratilishi, milliy-madaniy merosimizni raqamlashtirish va ta’lim jarayonlarida zamonaviy elektron platformalardan foydalanish, shuningdek, o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish bo‘yicha ilmiy-uslubiy strategik vazifalarni yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy,

madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasiga oid tadqiqotlar XX asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Dastlabki tadqiqot ishlari va korpuslar ingliz tilida yaratilgan. 90-yillarga kelib esa dunyoning juda ko‘p tillarida korpuslar yaratildi. An’anaviy va kompyuter tilshunosligida korpus lingvistikasining o‘rni, metodologiyasi, obyekti va vazifalari G.Lich, R.Garsid, J.Sink1er, L.Floverdev, T.Makkenri, A.Hardi, M.Makkarti, V.N.Frensis, G.Kennidi kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan[1]. Korpuslarning ijtimoiy ahamiyati, korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichlari, internetdan korpus sifatida foydalanish, internet va korpus o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar A.Kilgarrif, K.Styuart, G.Grefenstette, M.Hundt, N.Nesselhaf kabi tadqiqotchilar tomonidan mufassal yoritilib, masalaning nazariy asoslari tadqiq etilgan[3]. Rus tilshunosligida V.Plungyan, V.P.Zaxarov, A.B.Kutuzovlar tomonidan amalga oshirilgan qator tadqiqotlar korpus lingvistikasining alohida soha sifatida shakllanishida, rus milliy korpusining yaratilishida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida korpus tilshunosligi sohasida ko‘pgina muhim tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Sh.Xamroyeva A.Eshmo‘minov, N.Abdurahmonova, G.Toirova, M.Abjalova, O.Abdullayeva, A.Raxmanova, N.G‘ulomova, R.Karimov, M.Xolova, E.Xonnazarov, Z.Xusainova, A.Turdaliyev, M.Tursunovlarning[2] ilmiy

[1] Leech G. Corpus Annotation Schemes. In Literary and Linguistic Computing. Vol. 8. No. 4. – Oxford University Press, 1993. – P. 275-281; Leech G., Wilson A. Recommendations for the morphosyntactic annotation of corpora / EAGLES Document EAG-TCWG-MAC/R, 1994 // www.i1c.cnr.it/EAGLES/browse.htm1; Leech G., Garside R., Steven E.A. The Automatic Grammatical Tagging of the LOB Corpus // ICAXE Ncwo, 1983. – P. 13-33 // https://www.researchgate.net/publication/238760957; Garside R., Leech G., Sampson G. The CLAWS Wordtagging System / The Computational Analysis of English: A Corpus-based Approach. – London: Longman, 1987; McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics (1st ed.). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996; McEnery T.; Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – Cambridge: Cambridge Univcrsily Press, 2011; Francis W.N., Johansson S. Problems of Assembling and Computerizing Large Corpora // Computer Corpora in English Language Research. – Bergen: Norwegian Computing Centre for the Humanities, 1982; Francis W.N., Svartvik J. Language Corpora B.C. Directions in Corpus Linguistics, Proceedings of Nobel Symposium 82. – Stockholm, 1991; Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. – Harlow: Addison Wesley Longman, 1998; Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991; Flowcrdcw L. Corpus Linguistic Techniques Applied to Textlinguistics, 1998. – P. 541-552; McCarthy M., O'Keefe A. What arc corpora and how have they evolved? The Routledge handbook of corpus linguistics. – London and New York, 2/1.

[2] Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 54 б.; Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2021. – 268 б.; Эшмўминов А.А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 46 б.; Abdurahmonova N. O‘zbek tili elektron korpuslarining kompyuter modellari. Monografiya. – Toshkent, 2021. – 201 b.; Тоирова Г.И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 72 б.; Abjalova M. Korpus lingvistikasi uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2022; Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022. – 158 b.; Рахманова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 158 б.; G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uninng semantik teglari bazasini yaratish. Filol. fan. b. fals. dok. … diss. – Toshkent, 2022. – 189 b.; Karimov R. O‘zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari. Filol. fan. b. fals. dok. … diss. – Buxoro, 2022; Xolova M. O‘zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi (Boysun tumani “j”lovchi shevalari misolida). Monografiya. – Termiz, 2022. – 144 b.; Xonnazarov E. O‘zbek tili korpusi uchun zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni annotatsiyalash: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2023. – 159 b.; Xusainova Z. O‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash, lemmalashning lingvistik asoslari va dasturiy ta’minoti. Filol. fan. b. fals. dok. … diss. – Toshkent, 2023. – 158 b.; Turdialiyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. Filol. fan. b. fals. dok. … diss. – Toshkent, 2024. – 173 b.; Tursunov M. O‘zbek lingvistik

natijalari shular jumlasidandir. Korpus lingvistikasi o‘zbek tilshunosligida yangi va oxirgi yillarda jadal rivojlanayotgan soha bo‘lganligi bois monografik planda amalga oshirilgan ishlar juda kam. Xususan, Sh.Xamroyevaning o‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari, N.G‘ulomovaning Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishga bag‘ishlangan dissertatsiyasi[3] hamda shu nomdagi M.Abjalova hammuallifligida yozilgan monografiyasi[4]da korpus lingvistikasining shakllanishi, taraqqiyoti va nazariy asoslari, mualliflik korpusini tuzishning o‘ziga xos nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, mualliflik korpusi tuzishning umumiy va xususiy lingvistik asoslari bayon etilgan[5]. Oxirgi yillarda o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tadqiqot ishlari e’lon qilinmoqda. Bunday tadqiqotlar amaliy jihatdan o‘zbek korpus lingvistikasida korpuslarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. O‘zbek tili milliy korpusi[6], O‘zbek tilining ta’limiy korpusi[7], O‘zbek tili korpusi[8], Alisher Navoiy korpusi[9] fikrimiz dalili bo‘lib xizmat qiladi. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish monografik tarzda tekshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini shakllantirishning nazariy va dasturiy asoslarini ishlab chiqish, ilmiy-texnik matnlardagi leksik birliklarni lingvistik teglash va o‘zbek tilidagi ilmiy-texnik matnlar bazasini tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- korpus lingvistikasining nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish, uning shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalarini yoritish, shu bilan birga, milliy korpus yaratishda muhim hisoblangan ilmiy qarash va yondashuvlarni asoslash;
- o‘zbek tili ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratishda zarur bo‘lgan lingvistik mezonlarni belgilash, bu sohadagi nazariy maqsad va vazifalarni ilmiy asosda tushuntirish, ilmiy-texnik matnlarning fanlararo xususiyatlarini hisobga olgan holda dalillash;

---

korpusini yaratish tajribasidan (konkordans, tokenayzer, lemmatayzer, razmetkalash dasturlari asosida). Filol. fan. b. fals. dok. … diss. avtoref. – Qo‘qon, 2024. – 60 b.

[3] G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari bazasini yaratish (“Badoye’ ul-vasat” devoni asosida). Filol. fan. b. fals. dok. … diss. – Toshkent, 2023. – 190 b.

[4] Abjalova M., G‘ulomova N. Mualliflik korpuslari: Alisher Navoiy mualliflik korpusi. Monografiya / M.A.Abjalova, N.S.G‘ulomova. – Navoiy, 2023. – 216 b.

[5] Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 54 б.

[6] http://uzbekcorpora.uz/ijrochi

[7] https://uzschoolcorpara.uz/

[8] https://uzbekcorpus.uz/

[9] http://v1.alishernavoicorpus.uz/korpus_haqida/

- o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratishda zamonaviy kompyuter-texnologik yondashuvlarni tanlash, korpus tuzish jarayonida qo‘llaniladigan dasturiy vositalarni tahlil qilish va ularni tizimlashtirish;
- matnlarni lingvistik annotatsiyalash algoritmini ishlab chiqish, teglash jarayonining nazariy-amaliy jihatlarini yoritish, uning samaradorligini tajriba natijalari orqali belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratishga doir o‘zbek tilidagi turli ilmiy va texnik matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilida ilmiy-texnik matnlar bazasini shakllantirish, ularni teglash muammolari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

korpus va uning lingvodidaktika hamda lingvistika sohalaridagi ma’lumotlarni markazlashtirish va qayta ishlash imkoniyatlari, shuningdek, korpusdan samarali foydalanishning ahamiyati asoslangan;

o‘zbek tili milliy korpusidagi ilmiy-texnik matnlarni teglashda ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash, siyosat, madaniyat, ob-havo, iqtisodiyot, texnologiya sohalaridagi ilmiy matnlarning LDA, LSA, NMF usullari va algoritmlari vositasida http://topicmodel.uz/ dasturiy ta’minoti ishlab chiqilganligi isbotlangan;

o‘zbek tili ilmiy-texnik matnlarini teglash usullaridan matnni tushunish, ma’lumot olish, hissiyotlarni tahlil qilish, imloni tekshirish, hujjatlarni umumlashtirish va mashina tarjimasi kabi NLP ilovalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

matnlar bazasini shakllantirishda ilmiy-texnik matnga qo‘yiladigan talablar aniqlangan, ilmiy-texnik matnlarni korpusga joylashtirishda foydalaniladigan teglar ishlab chiqilgan va o‘zbek tili milliy korpusida semantik annotatsiyalash imkonini beruvchi ilmiy-texnik matnlardagi o‘ziga xosliklar tahlillar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

- o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish maqsadida, til va ma’noga oid olib borilgan tadqiqotlar hamda tajribalar orqali, korpusning ilmiy va texnik aspektlariga oid alohida lingvistik usullar ishlab chiqilgan;
- ko‘p sonli ilmiy-texnik matnlarning ma’lumotlar bazasini yaratish jarayonida, leksik va grammatik strukturalar, shuningdek, terminologiyaning aniqlashtirilishi, yuqori darajadagi aniqlik va standartlashtirishga yo‘naltirilgan yangi metodikalar yaratilgan;
- ko‘p turli sohalardagi ilmiy-texnik matnlarning to‘g‘ri teglanishi va annotatsiyalanishi orqali, ularni korpusda yangi ilmiy tadqiqotlar uchun xizmat qiluvchi manbaga aylantirishning muhim ahamiyati asoslangan;
- o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasining tashkil etilishi, uning yangi kompyuter-texnologiyalari orqali samarali ishlashini ta’minlovchi algoritmlar ishlab chiqilishi, shuningdek, korpusdagi ma’lumotlarning xato tahlili, faol aniqlash va optimizatsiya qilinishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan ilmiy xulosalarning tavsifiy, qiyosiy tahlillar bilan asoslangani va ularning amaliyotga joriy etilgani, tahlil usullari vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish, uning leksik-semantik va grammatik strukturasini aniqlash, shuningdek, ma’lumotlarni ishlab chiqish va avtomatlashtirishdagi axborot texnologiyalarining samaradorligini baholashga oid nazariy xulosalardan tilshunoslik hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish, uning semantik va grammatik strukturasini aniqlash, shuningdek, matnni avtomatik ishlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishda, “Kompyuter lingvistikasi”, “Matematik modellashtirish”, “Matnshunoslik nazariyasi” “Leksikografiya” fanlaridan mashg‘ulotlar olib borishda, o‘quv qo‘llanma, darslik, majmualar yaratishda hamda ilmiy va texnik lug‘atlar, ma’lumotnomalar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

- ilmiy texnik matnlarning tarjima variantlaridan foydalanishda bu tur matnlarning informatsion, yaxlitlik, izchillik, terminologik xususiyatlariga e’tibor qaratish xususidagi xulosalardan PF-201912258 – “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada (2021-2023) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-dekabrdagi 04/1-4044-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada elektron platformaga oid ilmiy-texnik matnlar bazasi yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan;
- dissertatsiyani tayyorlash jarayonida shakllantirilgan dasturiy ta’minot ma’lumotlar bazasidan, teglash tizimidan, annotatsiyalash tamoyillarining xulosalaridan AM-Ф3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada (2020-2023) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-dekabrdagi 04/1-4085-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda keltirilgan ilmiy-texnik materiallar, tematik modellashtirish algoritmlari, yashirin semantik tahlil haqidagi takliflar korpus mazmuni va amliy jihatini boyitishga xizmat qilgan;
- tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish, uning semantik va grammatik strukturasini aniqlash, shuningdek, matnni avtomatik ishlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdagi xulosalardan 2024-yilning 24-dekabrdagi 06-28-845-sonli ma’lumotnoma asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Hamma uchun” dasturi ssenariysini yozishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari yuzasidan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ma’ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, uchtasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, uchtasi xorijiy jurnallarda va tezislarda ifodalangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 158 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **I bobi “*O‘zbek tili milliy korpusida ilmiy-texnik matnlar bazasini berishning lingvistik asoslari*”** deb nomlanib, 4 bo‘limdan iborat.

1.1-bo‘lim. Jahon tilshunosligida matn hodisasining tadqiq etilishi va taraqqiyotiga bag‘ishlangan. Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillardan boshlab matn tilshunosligi yo‘nalishi asta-sekin rivojlana boshlagan bo‘lsa ham matn masalasi bilan bog‘liq qarashlar 40-yillarda o‘rtaga chiqqan. Dastlab g‘arb tilshunosligida matn va uning tabiatini o‘rganish masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi. Rus tilshunosligida matn (“tekst”) tushunchasining paydo bo‘lishi o‘tgan asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. 1947-yilda A.I.Belich[10] o‘zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag‘ishlangan maqolasida til faktlarining grammatik tavsifida ma’no umumiyligi asosida bog‘langan va muayyan sintaktik-semantik yaxlitlik tarzida namoyon bo‘ladigan gaplarning butun zanjiriga alohida o‘rin berilishi lozimligiga hamda bu “matn” tushunchasining yuzaga kelishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga e’tiborni qaratgan, ana shunday gaplar zanjiridagi o‘zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan. A.I.Belich bilan bir qatorda nemis tilshunos olimlari ham 40-yillarda matn haqida o‘z mulohazalarini aytib o‘tadi. Ba’zi adabiyotlarda I.A.Boduen de Kurtene asarlari matn borasidagi qarashlarning poydevori bo‘lib, u keyinchalik M.M.Baxtin[11], V.V.Vinogradov[12], L.V.Sherba[13] kabi bir qator olimlarning tadqiqot markaziga aylanganligi aytiladi. Biroq uzoq vaqt davomida matn tadqiqotchilarni, birinchi navbatda, mazmun (semantik) nuqtayi nazaridan qiziqtirdi (A.M.Peshkovskiy, L.V.Sherba, V.V.Vinogradov, A.Vayl, V.Mathesius, S.Balli, Z.Xarris). XX asrning 60-yillarida matn tilshunosligida,

[10] Белич А.И. К вопросу о распределении грамматического материала по главным грамматическим дисциплинам / Вестник МГУ, 1947. – № 7. – С. 24.

[11] Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарныхнауках. Опыт философского анализа / М.М.Бахтин // Литературнокритические статьи. – М.: Художественная литература, 1986.

[12] Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика / В.В.Виноградов. – М.: АН СССР, 1963.

[13] Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку / Л.В.Щерба. – М., 1957.

asosan, matnning izchilligi va tushunarliligini saqlash yo‘llari, shaxs hamda subyekt afzalligini bildirish usullari (anaforik tuzilmalar, pronominalizatsiya, lug‘aviy takrorlashlar, zamon zanjiri va boshqalar), gapning mavzu va rememasiga muvofiq taqsimlanishi o‘rganilgan. 1960-yillarda G‘arbiy Yevropada chex maktabining bevosita va bilvosita ta’siri ostida matnning lingvistik nazariyasi shakllana boshladi. Bu an’anada matn dastlab strukturaviy usullar bilan, ko‘proq tanish til obyektlari bilan o‘xshashlik asosida tahlil qilingan. Matn nazariyasi, matn tavsifi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojlanishida chex (Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, polyak, rus va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e’tirof etilgan hamda doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Rus tilshunosligida matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina[14] kabi ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Matn va uni tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta munozaralar paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, ya’ni muhim bazasi deb hisobladilar. Tilshunoslikda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni atroflicha tahlil qilgan va tom ma’noda matn lingvistikasi tadqiqi hamda bu tadqiqotlarning nechog‘li ahamiyatliligini tushuntirgan tilshunos O.I.Moskalskaya o‘tgan asrning 60-70-yillariga kelib matnni lingvistik o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayganini, dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo‘yicha juda ko‘p miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to‘la e’tirof etilganligini ta’kidlaydi.

1.2-bo‘lim. O‘zbek tilshunosligida matn hodisasining tadqiq etilishi va tarixiy taraqqiyoti deb nomlangan. O‘zbek tilshunosligida matn va uning turlari tadqiqi bir necha bosqichda olib borilganini ko‘rish mumkin. Matn tadqiqi sohasidagi tadqiqotlar, asosan, matnlarning semantik, sintaktik, kommunikativ vazifalari, strukturalarini, til va adabiyotshunoslikda rolini o‘rganishga qaratilgan. Ularni quyidagicha bosqichlarda ko‘rib chiqishni lozim topdik. 1. Matn tushunchasining aniqlanishi. Matn turlarini aniqlash va ularni vazifalariga ko‘ra ajratishda matnning o‘ziga xos xususiyatlariga, matn qanday omillarga ko‘ra shu maqomga ega ekaniga ahamiyat qaratish lozim. Matnshunoslikning boshlang‘ich bosqichi matn tushunchasining aniqlanishidan boshlanadi. Bu bosqichda olimlar matnning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning strukturaviy va lingvistik elementlarini tahlil qilishga kirishadilar. Bunda muammolar “Matn nima?” va “Matnni qanday turlarga ajratish

[14]Лотман Ю.М. Структура божественного текста. – М.: Искусство, 1970; Лингвистика текст. Материалы научной конференции. Ч. я, II. – М., 1974; Лосева Л.М. Как строится текст. – М.: Просвещение, 1980; Одинцов В.В. Стилистический текст. – М.: Наука, 1980; Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981; Гальперин И.Р. Показанные работы; Зарубина Н.Д. Текст: лингвистические и методологические аспекты. – М.: Русский язык, 1981; Тураева З.Я. Лингвистика – это текст. – М.: Просвещение, 1986; Сидоров Е.В. Проблема в речевой систематичность. – М.: Наука, 1987; Каменская О.Л. Текст и общение. – М.: Высшая школа, 1990; Горшков А.И. Русская стилистика. – М.: Астрель-АСТ, 2001. – С. 63-250; Валгина Н.С. Теория в тексте. – М.: Логос, 2004 и др.

mumkin?” degan savollar orqali yechimini topadi. Bu bosqichda matnning tilshunoslikda tutgan o‘rni va ahamiyati aniqlanadi. 2. Matn turlarining tasnifi**.** Ikkinchi bosqichda matnlar tasniflanadi. Bunda matnlarning turlari, ularning xususiyatlari va kommunikativ vazifalari aniqlanadi. Bu bosqichda matnlarni turlarga ajratishning me’yoriy va metodologik asoslari ishlab chiqiladi. 3. Matnshunoslikning amaliy tadqiqotlari**.** Matn turlarini amaliy jihatdan o‘rganish bosqichida, tilshunoslar matnlarning til va stilistik xususiyatlarini tahlil qilishadi. Bu bosqichda matnlar: grammatik va leksik jihatdan o‘rganiladi. Bunda matnning og‘zaki va yozma shakldaligiga ko‘ra kommunikativ vazifasi (maqsadi) hamda auditoriyasi hisobga olinadi. Matnlarni tarjima qilish, tahlil qilish va stilistik o‘ziga xosliklarini aniqlash, bog‘lovchi vositalar tahlili amaliy ishlarda qo‘llaniladi. 4. Matn turlarining o‘zgarishi va rivojlanishi. Til ijtimoiy jarayon hosili ekan o‘z-o‘zidan matnlar ham o‘zgaruvchan birlikdir. Matn turlarining rivojlanishi va o‘zgarishi ham o‘rganiladi. Bu bosqichda, olimlar matnlarning madaniy, ijtimoiy va tilshunoslikdagi o‘zgarishlar sababli qanday yangi shakllarga kirishini tahlil qiladilar. Masalan, aytaylik, internetda paydo bo‘lgan yangi matn turlari (bloglar, forum postlari, veb-sahifalar). Yangi texnologiyalar, media va kommunikatsiyalar bilan bog‘liq matn shakllari. 5. Matnshunoslikning integratsiyalashgan yondashuvi. Matnshunoslikda yangi yondashuvlar va metodlar ishlanadi. Bu bosqichda matnlar faqat lingvistik emas, balki psixologik, sotsial, va kulturologik nuqtayi nazardan ham o‘rganiladi. Shuningdek, matn turlarini boshqa sohalar bilan, masalan, adabiyotshunoslik**,** madaniyatshunoslik va axborot kommunikatsiya sohalari bilan bog‘lashda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ladi. 6. Matnshunoslikning zamonaviy metodlari. Bu bosqichda matnshunoslikda zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar qo‘llaniladi. Korpus lingvistika va kompyuter tahlili (matnlarni avtomatik ravishda tahlil qilish) kabi yangi yo‘nalishlarda ish olib boriladi. Matnning intertekstual tahlili, semiotik yondashuvlar va boshqa zamonaviy tahlil metodlari ishlatiladi. Bu bosqichlar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda muhim ilmiy natijalarga erishilayotganini guvohi bo‘lmoqdamiz. Matn hodisasi A.Mamajonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshev, N.Turniyozov, B.Yo‘ldoshev, M.Abdupattoyev, M.Qurbonova kabi olimlar tomonidan yuqorida qayd etilgan aspektlarda o‘rganilgan. Matnning turlari, aynan ilmiy matnning sintaktik va pragmatik muammolari yuzasidan ish olib borgan o‘zbek tilshunosi M.Hakimov hisoblanadi. U nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatni ifoda etuvchi bog‘lovchilar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalarini yoritib bergan. Ilmiy matnda muallifning xususiy munosabatini yoritish hamda uning turlarini ajratish bilan birga, ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini faktik ma’lumotlari asosida tadqiq etgan[15]. O‘zbek tilshunosligida matnni kompyuter dasturlari orqali tahlil qilish sohasida olib borilgan ishlar bir qator ilmiy tadqiqotlar va texnologik yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Bu sohada, asosan, o‘zbek tilining sintaktik, morfologik, semantik tahlilini kompyuter yordamida avtomatlashtirishga

[15] Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993.

qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Sh.Xamroyevaning “O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida til kategoriyalarini avtomatik morfologik tahlilini amalga oshirishning umumiy tamoyillari belgilab berilgan. N.Abdurahmanovaning “O‘zbek tili elektron korpuslarining kompyuter modellari” nomli monografiyasi o‘zbek tilini kompyuter yordamida tahlil qilish va qayta ishlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu monografiyada, asosan, o‘zbek tilining elektron korpuslarini yaratish, ularning kompyuter modellari yordamida ishlash imkoniyatlari va metodologiyasi haqida so‘z boradi.

Kompyuter lingvistikasi texnologiyalari matnlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, tasniflash va ularning strukturasini aniqlash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, matn turlarini o‘rganish va ularning xususiyatlarini tushunishda yangi metod hamda yondashuvlarni yaratishga yordam beradi.

1.3-bo‘lim. Matn va uning turlari tavsifi va talqini deb nomlangan.

Matn tavsifi – bu matnning mazmuni, tuzilishi, til va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish hamda izohlash jarayonidir. Matn tavsifi matnning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning tarkibini va tuzilishini tushunishga yordam beradi. Bu jarayon matnning sifatini, uning o‘quvchiga qanday ta’sir qilishini, qanday til vositalaridan foydalanilganini, matnning maqsadi va funksiyasini aniqlashga qaratilgan.



Matn turlari turli me’yorlar asosida shakllanadi va har bir turda o‘ziga xos til hamda uslub vositalari, maqsadlar va struktura mavjud. Shu asoslarga ko‘ra, matn turlari tasnifi quyidagicha:



Ularning barchasi xabar funksiyasi va ilmiy ma’lumotlarni, asosan, yozma shaklda mantiqiy izchil, obyektiv va dalillarga asoslangan holda taqdim etishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Har bir matn turi o‘zining maxsus vazifasini bajaradi va ma’lum bir auditoriya, guruh, shaxsga murojaat qiladi. Ushbu matn turlari o‘ziga xos uslub, tuzilma va mazmunga ega bo‘lib ma’lumot berish, taqdim etish, ko‘rsatma berish, ijodiy ifoda uchun, tasvirlash uchun, baholash va tahlil qilish maqsadlarida foydalaniladi.

*1.4-bo‘lim. Ilmiy matn va uni tushunish masalalari*ga bag‘ishlangan. Ilmiy matnda ish yuritishga oid, publitsistik yoki badiiy matndan farqli o‘laroq, nutqning funksional turlari qo‘llaniladi (tavsif, bayon, fikrlash, dalil va boshqalar). Ilmiy matnlar maxsus soha tilida yoziladi, bu esa ommaviy o‘qish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Har bir sohada o‘ziga xos terminlar hamda tushunchalar mavjud va ularni to‘liq tushunmaslik matnni yomon anglashga olib kelishi mumkin. Vaholanki, har bir sohaga oid terminlar lug‘ati mukammal bazasi hali mavjud emas. Masalan, matematika, IT yoki kimyoviy sohalarda ishlatiladigan terminologiya kundalik til bilan farq qiladi. Buning yechimi uchun ilmiy matnni o‘qish va undan foydalanish jarayonida yangi terminlarni aniqlash hamda ularni izohlash uchun lug‘at yoki sohaga oid ilmiy manbalardan foydalanish maqsadli bo‘ladi. Bu, albatta, yangi va keng hajmli lug‘atni talab qiladi. Lug‘atlarni o‘zbek tili milliy korpusida mavjud ilmiy matnlar bazasidan foydalanish yordamida tuzish mumkin. Ilmiy matnlar bir nechta manbalarning xulosaviy natijalarini, tajribalarni yoki tadqiqot samaralarini o‘z ichiga oladi. Bunday matnni tushunish uchun ma’lumotlarni birlashtirish, solishtirish va tahlil qilish talab etiladi. Bu, ayniqsa, ilgari o‘qilgan boshqa matnlar bilan bog‘lanishni talab qiladigan ta’limiy jarayonlar uchun muhimdir. Matnni o‘qib bo‘lgandan keyin, asosiy g‘oya yoki fikr, mazmunni boshqa ma’lumotlar bilan taqqoslash, izlanish va qo‘shimcha manbalarni o‘rganish kerak bo‘ladi hamda bu orqali matnning analiz-sintez jarayoni samaradorligi oshadi. Ushbu jarayonda ham o‘zbek tili ilmiy matnlarini oson topish va foydalanish uchun o‘zbek tili milliy korpusi bazasi zarur hisoblanadi. Ilmiy matnlar odatda tuzilish jihatdan murakkab bo‘ladi. Ular ko‘pincha uzun jumlalar, gaplar, tahlillar, formulaviy fikrlar va statistik tahliliy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Buning natijasida matnni to‘liq, mukammal tushunish qiyinlashadi. Muammoni matnni kichik qismlarga bo‘lib o‘qish va har bir qismni yaxshilab tushunishga harakat qilish orqali bartaraf etish mumkin. Har bir bo‘limni o‘qib bo‘lgandan so‘ng, asosiy maqsad va fikrni qayta umumiy izchillikda ko‘rib chiqish foydali bo‘ladi. Bilamizki,

ilmiy matnlarda boshqa tadqiqotlarga, ilmiy manbalarga yoki maqolalarga havolalar keltiriladi. Ushbu manbalarni ham kuzatishda ularni tushunmaslik, matnning to‘liq ma’nosini anglashni qiyinlashtiradi. Havolalarga ega bo‘lgan manbalarni izlash va ularni tekshirish maqsadga muvofiq. Matndagi qo‘shimcha izlanishlarga e’tibor qaratish orqali masala yuzasidan umumiy tasavvur hosil qilinadi. Ko‘p hollarda sohasiga ko‘ra, ilmiy matnlarda statistik ma’lumotlar, grafiklar va diagrammalar mavjud bo‘ladi, ularni to‘liq tushunish va tahlil qilish uchun statistik tahlil hamda raqamli ma’lumotlarni o‘qish qobiliyati talab qilinadi. Statistik diagramma va grafiklarni tahlil qilishda statistik tahlil metodlarni o‘rganish, shuningdek, tahlil uchun NLP algoritmlaridan foydalanib tuzilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanish maqsadlidir. Ilmiy tilda muallifning masalaga yondashishi va tahlillari borasida ba’zi bir noaniqliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, biror hodisa yoki fenomen haqida gapirganda, “ehtimol”, “taxminan”, “umuman olganda” kabi so‘zlar ishlatiladi, bu esa o‘quvchini matnni tushunishida noaniqliklarga olib borishi mumkin. Ilmiy matnlarni o‘qiyotganda, noaniqliklarni va ehtimollarni qo‘llanish maqsadini tahlil qilish lozim. Matnni ulardan holi tahlilga tortish aniq xulosalar olishda yordam beradi. Ilmiy matnlar o‘ziga xos va yangicha fikrlarni taqdim etadi. Bu fikrlarni tanqidiy tahlil qilish va ularni boshqa ilgari o‘qilgan ma’lumotlar bilan solishtirish zarur. Buning uchun o‘quvchidan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, matndagi asosiy g‘oyalarni va tadqiqotlarning ishonchliligini xolis baholash talab qilinadi. Chunki biror ilmiy matn natijasi ikkinchi bir ilmiy matnning yuzaga kelishida debocha, vazifasini o‘tashi mumkin. Ilmiy matn turlari: Ilmiy maqola. Dissertatsiya. Monografiya. O‘quv qo‘llanmalar va darsliklar. Ilmiy referatlar. Tadqiqot hisobotlari. Ilmiy konferensiyalar materiallari. Ilmiy taqdimotlar. Ilmiy-texnik matnlarni ommalashtirish hamda ilm dunyosi va foydalanuvchiga oson yetib borishini ta’minlashning asosiy omili korpus bazasiga qo‘shishdir. Ushbu yondashuv ilmiy-texnik matnni bir vaqtning o‘zida tadqiqot manbasi sifatida xizmat qilishi va bilim beruvchi omil ko‘rinishida gavdalantiradi. Ilmiy-texnik matnlarning bazasi bilimlarni namoyish etish bilan birga, uning yaratilish davri, muallifi va ixtisosligidan ham darak beradi.

II bob “O‘zbek tili milliy korpusida ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratishning nazariy masalalari ”ga bag‘ishlanib, 3 bo‘limdan iborat.

2.1-bo‘lim. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasiga doir tadqiqotlar tahlili deb nomlangan. Jahon tilshunosligida korpus sohasidagi maqsadli tadqiqotlar XX asrning 40-yillarida Blumfild, Friz va Bondjerslar tomonidan boshlangan.



Kompyuter lingvistikasi sohasi bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar doirasida chunonchi, ingliz tilini olaylik, XX asrning 60-yillarida AQSHning Braun universiteti olimlari N.Frensis va G.Kucheralar mashinalar vositasida birinchi yirik matn korpusini yaratishgan. Ushbu korpus 500 ga yaqin ingliz tilining amerikancha variantini o‘z ichiga olib, 15 dan ortiq amerika nasrini qamrab olgan birinchi yirik korpus sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda ko‘plab til korpuslari mavjud bo‘lib, turli maqsadlar doirasida yaratilganligi bois ular til korpuslarining maxsus turlari va turli imkoniyatlarini namoyon etadi. Olimlar, korpusga kiritiladigan til materiallarining hajmi oshgani sayin, lisoniy hodisalarni o‘rganish va tadqiq qilish imkoniyatlari kengayishini anglab yetdilar. Chunki har bir korpus sifat va miqdor jihatidan ma’lum talablarni qondirishi zarur[16]. Britaniya milliy korpusidan[17] ilhomlanib yaratilgan rus milliy korpusi o‘z ichiga nafaqat zamonaviy, balki tarixiy qatlamga oid so‘zlarni ham kiritgani bilan ajralib turadi.

Bu davrda jahon tilshunosligida tilni kompyuter texnologiyalari va statistik modellar asosida tadqiq etish zarurati ortib bordi. Bu jarayon tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) doirasida korpus lingvistikasining shakllanishi va mustaqil yo‘nalishga aylanishiga olib keldi. Til hodisalarini katta hajmdagi matnlar asosida o‘rganish imkonini beruvchi korpus lingvistikasi metodologiyasi, ilk bor ingliz tilshunosligida eksperimental ravishda qo‘llanila boshlagan bo‘lib, bugungi kunga kelib ko‘plab tillar uchun asosiy ilmiy tahlil usullaridan biriga aylangan. Korpus lingvistikasining nazariy poydevori G.Lich, J.Sinkler, R.Garsid, T.Makkenri, A.Hardi, M.Makkarti, V.Fransis, G.Kennedi kabi yetuk tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida korpuslar:

- til birliklarining funksional taqsimoti;
- statistik chastotalar;
- frazematik birliklarning tahlili,

[16] Грудева Е.В. Корпусная лингвистика. Учеб. пособие / Е.В.Грудева. 2-е изд., стер. – М.: ФЛИНТА, 2012. – 165 с.

[17] Британия Миллий корпуси (British National Corpus – BNC)га тенг равишда, инглиз тили корпусларидан яна: инглиз тили Халыаро корпуси (International Corpus of English – ICE), инглиз тили лингвистик Банки (Bank of English), Ҳозирги замон Америка инглиз тили Корпуси (Corpus of Contemporary American English – COCA) ва б.ларни ҳам келтириб ўтиш мумкин.

- til o‘rganish va ta’limdagi qo‘llanilishi kabi masalalarni ilgari surdi.

Ayniqsa, J.Sinkler boshchiligidagi COBUILD (Collins Birmingham University International Language Database) loyihasi ingliz tili zamonaviy korpus tahlilining amaliy modeliga aylandi. U korpus lingvistikasida “usage-based” yondashuvni asoslab berdi, ya’ni tilni o‘rganishda matnlar vositasida real qo‘llanishni asosiy tahlil obyekti sifatida qaradi. Korpuslar yordamida sintaktik va semantik strukturalarni tahlil qilish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan vositalar – lemmalash, teglash, morfologik razmetka, tematik modellashtirish (LDA, NMF, LSA) – tilshunoslikka yangi turtki berdi. Shuningdek, korpusdan foydalangan holda avtomatik tarjima tizimlarini yaratish, grammatik xatolarni aniqlovchi dasturlar ishlab chiqish hamda lug‘at tuzishning ilg‘or yondashuvlari rivojlandi. Zamonaviy tilshunoslikda internet bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangi korpuslar – veb-korpuslar, blog va tvit korpuslar, parallel korpuslar yaratilmoqda.

Korpus lingvistikasi nafaqat ingliz tili, balki rus, nemis, fransuz, ispan, xitoy va boshqa yirik tillarda ham izchil rivojlanmoqda. Masalan, rus tilshunosligida V.Plungyan, A.B.Kutuzov, V.P.Zaxarovlarning ilmiy ishlari rus milliy korpusining yaratilishi va takomillashtirilishiga muhim hissa qo‘shdi. Ular korpusdagi annotatsiyalash tizimi, matnlarning sathiy tahlili, kontekstual modellashtirish bo‘yicha nazariy asoslarni yaratdilar. Bugungi kunda korpus lingvistikasi multidisiplinar soha sifatida tilshunoslik, informatika, psixolingvistika, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va pedagogika bilan uzviy bog‘lanib, keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar platformasiga aylangan. Bu yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*2.2-bo‘lim. O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining rivojlanishi*ga bag‘ishlangan. O‘zbek korpus lingvistikasi ham, ayni vaqtda, taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilib ulgurdi. Buning isboti sifatida O‘zbek tili milliy korpusi[18], O‘zbek tilining ta’limiy korpusi[19], O‘zbek tili korpuslari[20] amaliy natijalarini keltirish mumkin. Korpus lingvistikasi korpus yaratish hamda korpus metodlaridan foydalanib, tilning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganishga doir ikki yo‘nalish asosida ish olib boradi. O‘zbekistonda korpus lingvistikasining shakllanishi 2018-yillarda nazariy tadqiqotlar bilan boshlanib, 2021-yilda o‘zbek tilining ta’limiy korpusi yaratilishi bilan rivojlandi. O‘zbek tilshunoslari Sh.Xamroyeva, N.Abduraxmonova, M.Abjalova, A.Eshmo‘minov, D.Axmedova, O‘.Xoliyorov, G.Toirova, D.O‘rinboyeva, A.Raxmanovalar tomonidan til korpuslari hamda uning turlari tadqiq qilingan. Buning natijasida esa mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari[21], tabiiy tilni qayta ishlash[22], sinonim so‘zlarni semantik teglash[23], atov

[18] http://uzbekcorpora.uz/ijrochi
[19] https://uzschoolcorpara.uz/
[20] https://uzbekcorpus.uz/
[21] Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. aftoref. – Qarshi, 2018. – 53 b.
[22] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. Monografiya. – Toshkent, 2020. – B. 176.
[23] Eshmo‘minov A.A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Qarshi, 2019. – 140 b.

birliklarini leksik-semantik teglash[24], o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish[25], elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari[26] tadqiq etildi. Keyingi yillarda o‘zbek tilining milliy korpusini yaratishga harakatlar paydo bo‘lishi natijasida, bir necha fragment holidagi korpuslar ishga tushdi. Bunga misol qilib Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Samarqand davlat universiteti jamoasi bilan hamkorlikda bajargan loyiha doirasida “o‘zbek tili milliy korpusi” (“Alpomish” dostoni materiallari asosida)ni, N.Abduraxmonova boshchiligida yaratilgan “o‘zbek tili korpusi”ni hamda N.G‘ulomovaning “Alisher Navoiy mualliflik korpusi”, O.Abdullayevaning “Tug‘ro” nomli o‘zbek tili axborot matnlari korpusini aytish mumkin. Bu amaliy ishlanmalarga bir necha yillar oldin yuqorida qayd etganimiz monografik tadqiqotlar bilan poydevor qo‘yilgandi. Dissertatsiyaning bu bo‘limida yana bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tilining ta’limiy korpusi, o‘zbek tilining milliy korpusi, o‘zbek tili korpuslarining ahamiyatli jihatlari o‘rganilib, fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, korpus lingvistikasiga doir yaqin yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatlariga doir fikrlar ham o‘rin olgan. Hozirgi kunda amaliy tilshunosligimizning eng dolzarb vazifalaridan biri – o‘zbek tilining mukammal milliy korpusini yaratishdir. Chunki milliy korpus, aslida, milliy tilning boy xazinasini anglatadi.

2.3-bo‘lim. O‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasining zarurati. O‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish, o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanishini, uning grammatik, leksik va stilistik xususiyatlarini chuqur o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega. Ilmiy-texnik matnlar bazasining zarurati bir nechta omillarga asoslanadi:

[24] Ahmedova D. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Buxoro, 2020. – 156 b.

[25] Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari // O‘zbekistonda til va madaniyat. – Toshkent: ToshDo‘TAU, 2021. – № 4. – B. 60 75; Абжалова М. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка // TurkLang – 2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash IX xalqaro konferensiyasi.

[26] Raxmanova A. O‘zbek tili Milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg‘ona, 2022. – 52 b.



O‘zbek tili milliy korpusi uchun ilmiy-texnik matnlar bazasini yaratish tilshunoslik, leksikografiya, grammatika, sintaksis va boshqa ko‘plab sohalarda ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanishini o‘rganish va ilmiy-texnik adabiyotlarni yaratish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

III bob “O‘zbek tili milliy korpusida ilmiy-texnik matnlar bazasini teglash va uning dasturiy ta’minoti”ga bag‘ishlangan bo‘lib, 3 bo‘limdan iborat.

*3.1-bo‘lim. Korpus turlari, xususiyatlari va matnlarni razmetkalash usullari*ga bag‘ishlangan. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ga asoslangan dasturiy ta’limotlarni ishlab chiqish uchun NLP tizimini mavjud ma’lumotlarni o‘rganishini ta’minlash kerak. Ushbu amalni til korpusi vositasida amalga oshirish mumkin. Til korpusi elektron shaklda taqdim etiladigan *katta hajmli* va *strukturlangan matnlar to‘plami* sifatida qaraladi. Til korpusi *yozma* yoki *og‘zaki* materialni ifodalab, NLP tizimini mavjud resurslarni o‘rganishi uchun **lingvistik tahlilni** amalga oshirish lozim. Til korpusi tabiiy tilni qayta ishlash tizimining asosidir. Unda gazetalar, romanlar, retseptlar, radio eshittirishlardan tortib teleko‘rsatuvlar, filmlar va tvitlargacha bo‘lgan turli shakldagi ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. NLPning ko‘plab vazifalarini hal qilishda til korpusidan foydalaniladi: **mashinali o‘qitish**

modellarini o‘rgatish, tilni tushunish, diskurs tahlili, tarjimashunoslik, qoidalarga asoslangan tizimlar, lug‘at va semantika, statistik tahlil, sohaviy bilimlar. NLP tizimini ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan har xil turdagi korpuslar mavjud. NLPda til korpuslari mazmun, maqsad yoki manba kabi turli mezonlar asosida har xil turlarga bo‘linadi.

Korpus matnlari turini tanlash.

